

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.T.Tursunova	
Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari.....	244
Z.T.Aripov	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish	247
N.O.Saidova	
Boshlang'ich maktabgacha yoshdagi bolalarda miqdoriy tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari	251
M.A.Abdubannobova	
O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimi jarayoni va uning joriy etilishi	254
O.A.Ashurova	
Ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik ahamiyati.....	257
B.Latipov	
Ta'lim va tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik konsepsiyasining roli	261
T.Y.Bakirov, R.M.Mamatqulov	
O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashda dasturiy ilovalardan foydalanish samaradorligi	265
V.T.Jo'rayev	
Oliy ta'lim massasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning o'rni	269
Z.M.Xursanova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari	274
M.A.Jalilov	
O'yin texnologiyalari-bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish vositasi sifatida	279
Z.X.Siddiqov	
Talabalar matematik kompetentligini rivojlantirishda noan'anaviy ta'lim yondashuvlar	283
M.G'.Zaylobidinova	
Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning ta'limni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish.....	287
Г.П.Наркабилова	
Влияние на формирование профессиональных компетенций будущих педагогов и интеграция в образовательную практику.....	291
M.Sh.Dehqonova	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishning turli bosqichlari.....	295
N.Q.Olimova	
Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzi va nutqini o'stirish metodikasini takomillashtirish	299
D.T.Rustamova	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirish modelini takomillashtirish	304
Y.U.Egamberdiyeva	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisiining kreativlik sifatlarini rivojlantirish	309
U.Y.Axmedova	
Texnologik ta'lim asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda algoritm tushunchasini shakllantirish	313
M.U.Buvajonova	
Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida lug'at ustida ishlash metodikasi	317
M.A.Mamasaidova, S.Sobirova	
Matematikaga oid misol va masalalarni yechishda matematik tafakkurning muhim roli	321
M.A.G'ofurova	
Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning matematikaga oid mantiqiy mushohada yuritish faoliyatini rivojlantirish.....	325
D.M.Gazieva	
Psychological and pedagogical aspects of media use in education.	331



UO'K: 378.14..502

EKOESTETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI.**НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НАПРАВЛЕННОСТЬ РАЗВИТИЯ
ЭКОЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ЗНАЧЕНИЕ.****SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL ORIENTATION OF THE DEVELOPMENT OF ECO-
AESTHETIC CULTURE.****Oygul Ashurova Anvarjonovna** 

Farg'ona davlat universiteti "Maktabgacha ta'lim" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada Pedagogik OTM.larda ekologik-ekoestetik tarbiyani rivojlantirish va shakllantirish, kelajak avlodlarga tabiat in'om etgan tabiiy boyliklarni asrab-avaylash, himoya qilish, tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash haqida, hukumatimiz tomonidan ekologik-estetik tarbiya borasidagi chiqarilgan qonunlar asosida uzluksiz ta'lim sohasidagi qilinayotgan va qilinishi kerak bo'lgan vazifalar haqida so'z yuritiladi.

Аннотация

В статье Речь пойдет о педагогических ВУЗ.ов развитии и формировании эколого - эстетического воспитания, о сохранении, охране природных ресурсов, подаренных природой будущим поколениям, о воспитании в духе любви к природе, о задачах, которые выполняются и должны выполняться в сфере непрерывного образования на основе законов, изданных нашим правительством в области эколого-эстетического воспитания.

непрерывного образования на основе законов, изданных нашим правительством в области эколого-эстетического воспитания.

Abstract

The article will focus on pedagogical universities about the development and formation of ecological and aesthetic education, about the conservation and protection of natural resources donated by nature to future generations, about education in the spirit of love for nature, about the tasks that are being performed and should be performed in the field of continuing education on the basis of laws issued by our government in the field of ecological and aesthetic education. continuing education based on the laws issued by our government in the field of environmental and aesthetic education.

Kalit so'zlar: ekoestetika, ekoestetik bilim, ekologik-ekoestetik ta'lim omillari, ekologik ta'limning asosiy tamoyillari.

Ключевые слова: экоэстетика, экоэстетические знания, эколого-экоэстетические воспитательные факторы, основные принципы экологического образования.

Key words: eco-aesthetics, eco-aesthetic educational factors, eco-aesthetic education, basic principles of environmental education.

KIRISH

2023 yilning mart oyida Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev topshirig'iga binoan ekologik madaniyatni yuksaltirish, yoshlarning ekologik ongini shakllantirish, ta'lim muassasalarida ekologik ta'limning uzluksizligini ta'minlash va ekologik madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rishga alohida e'tibor qaratish lozimligi alohida ta'kidlangan.

Pedagogik OTM.larda bo'lajak mutaxassislarining ekologik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ekotarbeya jarayonining ajralmas qismi bo'lgan ekoetik va ekoestetik madaniyatini oshirish vazifalari ham ijtimoiy-pedagogik zaruratga aylanmoqda. Shuning uchun ham insoniyatning tabiatga antropotexnogen ta'sirining chuqurlashuvi, ilm-fan va innovatsion texnologiyalarga asoslangan jamiyat rivoji tabiatga ekoestetik munosabatni rivojlantirayotgani, atrof-muhit ekoestetikasining shakllanishi tabiatga nisbatan yangicha yondashuv ehtiyojini keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tan olgan global ekologik muammolarni bartaraf etishda tabiatga evdomonistik munosabatni shakllantirishni kun tartibiga qo'ymoqda. Bunday vaziyatda ilm-fan, xususan pedagogika fani oldida bo'lajak tarbiyachilar orqali yosh

avlodning ilk bolalik chog'idanoq tabiatga ekoestetik munosabatini qaror toptirish borasida yangicha tadqiqotlar, yondashuvlar va konsepsiyalar yaratish vazifalari yuzaga chiqmoqda.

Dunyo pedagogik tadqiqotlar tizimida ekologik ta'lim-tarbiyani modernizatsiya qilish asosida tabiatga estetik munosabatni shakllantirishning pedagogik tizimini yaratishga doir ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb masala sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Pedagogik OTM muassasalarida ekologik, ekoestetik bilimlarni o'rgatish uchun ekologik, ekoestetik bilim etarli darajada bo'lishi kerak. Xususan, O'zbekistonda yangi jamiyat qurilishi davrida milliy taraqqiyot xususiyatlari badiiy adabiyotning ekologik muammolar yechimini topishda o'ziga xos tamoyillarini, konstruktiv-ratsional usul-vositalarini belgilab bermoqda. Bizning nazarimizda bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

Obyektivlik tamoyili. Badiiy adabiyot vujudga kelish tarixiy genezisiga ko'ra, inson ijtimoiy ongli faoliyatining natijasi bo'lsa ham, ob'ektiv hodisadir. Uning ob'ektivligi tarixiy taraqqiyot taqozosi va zaruriyati bilan izohlanadi. Lekin, badiiy adabiyot jamiyat ma'naviyatiga, shaxs ongiga ta'siri nuqtai nazaridan, subyektiv omil rolini bajaradi. Bu, badiiy adabiyotda obyektivlik va sub'ektivlikning o'zaro aloqadorligini namoyon qiladi.

Konkretlik tamoyili. Badiiy adabiyot, umuman ob'ektiv reallikni ideal obrazlar tarzida ifodalashiga qaramasdan, konkret mazmunga ega. Chunki, badiiy adabiyotning har qanday turi, **birinchidan**, voqelikning konkret xususiyatlarini aniq usullar va vositalar orqali ifodalaydi. **ikkinchidan**, badiiy ijoddagi individuallik uning konkretligini namoyon bo'lishidir.

Ijod erkinligi tamoyili. Badiiy ijoddagi erkinlikning mohiyati - umuminsoniy va milliy badiiy qadriyatlarni uyg'unlashtirish asosida insoniyat sivilizatsiyasi maqsadlariga xizmat qildirish hamda zamon ruhiga mos bo'lgan ijodiy erkinlikning demokratik asoslarini yaratish va hayotga tadbiq etish bilan izohlanadi.

Ijodiy takomillik tamoyili. Badiiy adabiyot, umuman ijtimoiy borliqning, xususan ekologik voqelikka munosabatning passiv in'ikosi, ya'ni obrazlarda ifodalash usuli emas. Aksincha, badiiy adabiyotning har qanday janri, turi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot taqozosidir. Tarixiy taraqqiyotning zaruriyati ijtimoiy munosabatlarni, ularning ichki ziddiyatlarini "ommabop" tarzda izohlash ehtiyojini vujudga keltirgan.

Tarixiylik va mantiqiylik tamoyili. Har qanday ijtimoiy hodisaning mavjudligi, uning vujudga kelishi, taraqqiyoti tendensiyasi retrospektiv asoslarini dialektik inkor qiluvchi o'ziga xos xossa, sifat, xususiyatlarning uyg'unligi (mantiqiylik) bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, badiiy adabiyotning bo'lajak kadrlarning ekoestetik madaniyatini tavsiflovchi o'ziga xos xususiyatlari, uning tarixiy rivojlanish jarayonlariga mos bo'ladi.

Tizimli-uyg'unlik tamoyili. Badiiy adabiyotning shaxs ekologik ongi va madaniyatiga ta'sir tizimi, uni tashkil qilgan strukturaviy elementlarning o'zaro munosabatlari orqali namoyon bo'ladi.

Badiiy adabiyotning ekologik-estetik muammolarga munosabatidagi tizimlilik uyg'unlikning namoyon bo'lishidir. Bunda quyidagi paradoksal qonuniyat ko'zga tashlanadi, ya'ni badiiy adabiyotda ekologik va estetik g'oya va uni ifodalash usuli uyg'unligi o'z ifodasini topadi. Eng muhimi, badiiy adabiyotning bo'lajak kadrlarda ekoestetik madaniyatni rivojlantirish usullari va vositalari uyg'unligi ta'minlanilishini, uning jamiyat ma'naviy madaniyatiga ta'sir samaradorligini oshirish imkoniyati hisoblanadi.

Badiiy adabiyot janrlarining jamiyat taraqqiyotiga ta'siridagi ayrim usul va vositalarning determenantligini e'tirof etish, uning uyg'unligini ta'minlash g'oyasiga putur yetkazmaydi. Aksincha, ayrim usullar va vositalar dominantligi, ularning uyg'unligini rag'batlantiruvchi omildir. Masalan, badiiy adabiyotni rivojlantirishda qo'llaniladigan milliy usul va vositalar umuminsoniyat badiiy adabiyoti taraqqiyotining muhim omili bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda.

Ommaviylik va individuallik tamoyili. Badiiy adabiyot retrospektiv asoslariga ko'ra, kundalik amaliy ong va ijtimoiy munosabatlarni ifodalash darajasida g'oyat qadimiy va ommaviydir.

Yuqorida ko'rsatilgan tamoyillar badiiy adabiyotning bo'lajak kadrlarda ekoestetik madaniyatni rivojlantirishga ta'sir qilish usullari va vositalari samaradorligini belgilab beradi.

NATIJALAR

Birinchidan, bo'lajak kadrlarda ekoestetik madaniyatni rivojlantirishda badiiy adabiyotning rolini oshirish, uning ta'sirchan usul va vositalarini takomillashtirish orqali amalga oshadi. Bu jarayon, tashkiliy jihatdan, jamiyat ijtimoiy-siyosiy strukturasi elementlarining muvofiqlashgan faoliyatini taqozo qiladi. Chunki, jamiyat strukturaviy elementlarning nisbiy mustaqilligi, ularning

PEDAGOGIKA

manfaat ehtiyojlaridan kelib chiqqan konkret usul hamda vositalarni „tanlash erkinliklari, imkoniyati doirasida, namoyon bo'ldi.

Ikkinchidan, jamiyatning demokratik prinsiplarga asosan rivojlanishining zaruriy sharti bo'lgan ekologik madaniyat badiiy adabiyotning tabiatni muhofaza qilishga ma'naviy ta'sir usullari hamda vositalarini milliy barqaror taraqqiyot manfaatlari asosida uyg'unlashtiruvchi o'ziga xos tamoyillarni vujudga keltiradi.

Uchinchidan, muayyan mamlakatda yashayotgan turli millatlarning badiiy adabiyotini ekologiyalashtirishdagi usullar hamda vositalaridagi uyg'unlik, shu jamiyat ekologik barqaror taraqqiyotnigina emas, balki umuminsoniy manfaatlarga mos keladi.

To'rtinchidan, umuman jamiyat ma'naviy taraqqiyotiga, xususan bo'lajak kadrlarda ekooestetik madaniyatiga ta'sir qiluvchi badiiy adabiyot usullari va vositalaridagi konstruktivlik va ratsionallik davlatning badiiy adabiyot sohasidagi siyosati samaradorligini belgilaydi.

Beshinchidan, badiiy adabiyotning bo'lajak kadrlarda ekooestetik madaniyatni rivojlantiruvchi usullar va vositalarni sun'iy ravishda mafkuralashtirish hamda siyosiyashtirish ijtimoiy-ekologik hayotga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

MUXOKAM

Pedagog tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularda ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish lozim.

bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarida ekoestetik madaniyatni milliy va umuminsoniy qadriyatlarini qadrlash tuyg'usi asosida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish lozim.

bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini tabiatni-asrab avaylashga bag'ishlangan badiiy adabiyotlar asosida rivojlantirish modeli va ta'lim texnologiyasini takomillashtirish lozim.

bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyati rivojlanganlik darajasini tashxis etish va takomillashtirish lozim.

XULOSA

Ekoestetik tarbiya bolalarning tevarak-atrofga nisbatan kuzatuvchanligini oshiradi, tabiat voqea-hodisalarining sodir bo'lish sabablarini aniqlashga qiziqishlarini kuchaytiradi. Natijada bolalarning idroki, aqli, ekologik ongi, dunyoqarashi, tasavvuri rivoj topadi.

1. Tabiatni e'zozlash, atrof-muhitni muhofaza etish haqidagi yo'l-yo'riqlar ajdodlarmizdan asrlar osha ma'naviy meros sifatida ilhom manbai bo'lib kelgan. Tabiatga mehr odam dunyoga kelgan paytidan, go'daklik chog'idan boshlab uning qalbiga singa boshlaydi. Tabiatga mehri kuchli bo'lgan odamning el-yurtga, Vatanga bo'lgan mehr-muhabbati ham yuksak bo'ladi.

2. Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirish ekologik ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Bo'lajak pedagog-tarbiyachilarda ekologik-estetik dunyoqarashni shakllantirish orqali ekoestetik madaniyat rivojlanib boradi.

3. Tarixiy taraqqiyot davomida umuminsoniy g'oyalarni ifodalagan badiiy adabiyot ekologik ta'lim-tarbiyani, ekoestetik madaniyatni badiiy obrazlar orqali shakllantirish bilan insoniyatni tabiatni sevish, uni asrab-avaylashdan iborat ma'naviy-axloqiy kamolotga da'vat etib kelgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил учун Мурожаатномаси// <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasitoliq-matn>

2. Мирзиёев Ш.М. Халқимиз розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент. Ўзбекистон. 2018. – Б 252.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил учун Мурожаатномаси// <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi->

4. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Ўзбекистонга тегиш-ли иккинчи Атроф-муҳит ҳолати шарҳининг 29-серияси. 2010.

5. Мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган Давлат дастурлари. – Т., 2008.

6. «Болажон» таянч дастури. – Т., 2010

7. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. P.S.Sultonov .T-2007

8. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish YO.Yormatova,X.S Xushvaqtova T- 2018

9. Ekologiyaning nazariy asoslari A.Nigmatov T-2013

10 Салаев Ф. Хрзирги узбек илмий фантастик адабиётида инсон ва табиат муаммолари 1993 йил

11 Aesthetic education as a factor of professional training of preschool teachers in a pedagogical university. Theoretical & Applied Science, (5), 425-427.

12 Analysis of foreign experience on the development of eco-aesthetic culture of future preschool education specialists. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1478-1484.

13 Экология учебное пособие. В. А. ДЕРЯБИН Е. П. ФАРАФОНТОВА Екатеринбург Издательство Уральского университета 2016

14 ОСНОВЫ ЭКОЛОГИИ А.В. Щур, А.Ю. Скриган, Т.Н. Агеева, И.В. Шилова, И.Н. Фойницкая, В.М. Пускова, И.С. Селезнева Учебное пособие для студентов всех специальностей Могилев 2014